

## 2020-yil yanvar oyida Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi



### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **785,3 mlrd.so'mni**, sanoat ishlab chiqarish indeksi **114,7 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning hajmi **366,4 mlrd.so'mni** o'sish sur'ati **106,5 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **46,7 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **64,0 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2020-yilning yanvar oyida viloyat korxonalari tomonidan 785,3 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 114,7 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishslash) sanoatida ishlab chiqarish hajmi indeksi - 10,8 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning -2,2 martaga o'sishi hisoblanadi.

### **Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, %**



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishslash



Ishlab chiqaradigan sanoat



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3,7 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ni tashkil etdi.

#### Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2020-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 687,5 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 87,5 % ni tashkil etdi.

#### 2020-yil yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish.

	2020-yil	2019-yil	2019-yilga nisbatan, %
<b>Paxta lenti, ming tonna</b>	0,5	0,5	100,0
<b>Aroq – ming litr 100 % spirt</b>	42,1	49,2	85,6
<b>Konyak spirti – ming litr 100 % spirt</b>	0,0	22,3	
<b>Vino, ming litr</b>	68,0	160,9	42,3
<b>Un, ming tonna</b>	7,7	10,2	75,5
<b>O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna</b>	2,1	2,1	100,0

**Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi.**


Tarmoqlar nomi	Mahsulot hajmi, mlrd.so'm	Jamiga nisbatan ulushi, foizda
<b>Ishlab chiqaradigan sanoat</b>	<b>687,5</b>	<b>100,0</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	154,3	22,4
Ichimliklar ishlab chiqarish	26,5	3,8
Tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	0,0	0,0
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	262,2	38,2
Kiyim ishlab chiqarish	81,1	11,8
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	14,8	2,2
Yog`och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), pohol va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish	2,0	0,3
Qog`oz va qog`oz mahsulotlari ishlab chiqarish	4,5	0,7
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,2	0,0
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,8	0,1
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	9,7	1,4
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	18,0	2,6
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	7,8	1,1
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	22,6	3,3
Metallurgiya sanoati	5,8	0,8
Mashina va uskunalardna tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	26,1	3,8
kompyuterlar, elektron va optik mahsulotlar ishlab chiqarish	0,2	0,0
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	25,8	3,8
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	3,1	0,5
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	0,6	0,1
Boshqa transport uchkunalarini ishlab chiqarish	0,1	0,0
Mebel ishlab chiqarish	9,7	1,4
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	10,9	1,6
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish	0,8	0,1

Ishlab chiqarishninig texnologik tarkibi bo'yicha  
ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi.


o'rta-yuqori  
texnologiyali




2019 yil  
yanvar



o'rta-quyi  
texnologiyali



2020 yil  
yanvar



yuqori  
texnologiyali



quyi  
texnologiyali



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ning ulushi - 2,7 % ni ( 2019-yil yanvar oyida -2,6 % ) , o'rta-yuqori texnologiyali - 5,7 % (5,7 %), o'rta-quyi texnologiyali – 9,3 % (8,8 %) va quyi texnologiyali -82,3 % (82,9 %) ni tashkil etdi.



### **Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 88,5 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 11,3 % ni) tashkil etdi.

### **Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5,6 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 % ni) tashkil etdi.




### Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida ishlab chiqarish hajmi 366,4 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2019-yilning yanvar oyiga nisbatan 106,5 % ga o'sgan, jami sanoatdagi ulushi esa 46,7 % ni tashkil etdi.



### 2020 yil yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari




○ iste'mol tovarlar

○ oziq-ovqat tovarlari

○ nooziq-ovqat tovarlari

2019-yilning yanvar oyida iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushi 38,8 % bo'lib, 2020-yilning yanvar oyida 39,4 % ga yetgan.

**Yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish  
hajmining tarkibi, % da.**



2019-yilning yanvar oyida iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushi 61,2 % bo'lib, 2020-yilning yanvar oyida 60,6 % ni tashkil qildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan kamaygani kuzatildi.

**Hududlar bo'yicha 2020-yilning yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati.**


	Mlrd.so'm	Jamiga nisbatan ulushi, %	2019-yil yanvarga nisbatan o'sish, % da
<b>Viloyat jami</b>	<b>366,4</b>	<b>100,0</b>	<b>106,5</b>
Namangan shahar	163,4	44,5	103,2
Mingbulloq	3,1	0,9	97,2
Kosonsoy	15,6	4,3	108,1
Namangan t	41,0	11,2	104,3
Norin	7,5	2,0	106,4
Pop	11,4	3,1	99,7
To'raqo'rg'on	29,6	8,1	105,4
Uychi	23,5	6,4	103,6
Uchqo'rg'on	44,7	12,2	110,9
Chortoq	7,2	2,0	106,3
Chust	13,8	3,8	203,1
Yangiqo'rg'on	5,7	1,5	100,2

## Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarilishi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 219,4 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.


Qo'shma korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 27,9 % ni tashkil etdi.

### Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmidagi ulushi, % da.



Qo'shma korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiyligi hajmida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari ulushi 100,0 % ni tashkil etdi.

**Hududlar bo'yicha chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarini sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da.**



### Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

	2020 yil yanvar mlrd.so'm	2019 yil yanvarga nisbatan, %
<b>Viloyat jami</b>	<b>785,3</b>	<b>114,7</b>
Namangan shahar	331,4	128,4
Mingbuloq	3,2	19,6
Kosonsoy	23,1	103,1
Namangan t	75,6	111,4
Norin	28,0	97,9
Pop	24,0	71,3
To'raqo'rg'on	115,7	106,0
Uychi	62,9	100,3
Uchqo'rg'on	84,4	105,1
Chortoq	8,4	104,1
Chust	19,0	94,7
Yangiqo'rg'on	9,5	102,3

Viloyatda sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Namangan shahar (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 42,2 % ulushini), To'raqo'rg'on (14,7 %), Uchqo'rg'on (10,7 %), Namangan (9,6 %), Uychi tumani (8,0 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Shu bilan birga eng kam ulush Mingbuloq (0,4 %), Chortoq (1,1 %), Yangiyo'rg'on (1,2 %), Chust (2,4 %), Kosonsoy (3,0 %) va tumanlariga to'g'ri keladi.

### Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish ulushi, % da.



Shuningdek, iste'mol mollari hajmining eng katta qismi Namangan shahar (jami iste'mol tovarlari hajmida 44,5 %), Uchqo'rg'on (12,2 %), Namangan (11,2 %), hamda To'raqo'rg'on (8,1 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

### Hududlar bo'yicha iste'mol tovarlari ishlab chiqarish ulushi, % da.



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Namangan shahrida (535,1 ming so'm), To'raqo'rg'on tumanida (519,0 ming so'm), Uchqo'rg'on (496,9 ming so'm) va Namangan (428,0 ming so'm), Uychi (299,7 ming so'm) tumanlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (282,3 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.


Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 131,7 ming so'm bo'lgani holda Namangan shahrida 263,8 ming so'mni, Uchqo'rg'on tumanida 262,9 ming so'mni, Namangan tumanida 232,2 ming so'mni, To'raqo'rg'on tumanida 132,9 ming so'mni tashkil etdi.

**2020-yil yanvar oyida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat ishlab chiqarish va iste'mol tovarlari hajmlari.**


	Sanoat ishlab chiqarish (ming so'mda)	Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish (ming so'mda)
<b>Viloyat jami</b>	<b>282,3</b>	<b>131,7</b>
Namangan shahar	535,1	263,8
Mingbuloq	25,8	25,2
Kosonsoy	112,5	75,7
Namangan t	428,0	232,2
Norin	173,3	46,1
Pop	110,6	52,5
To'raqo'rg'on	519,0	132,9
Uychi	299,7	111,9
Uchqo'rg'on	496,7	262,9
Chortoq	43,0	36,6
Chust	72,3	52,7
Yangiqo'rg'on	44,1	26,4

**2020-yil yanvar oyida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari  
ishlab chiqarish va iste'mol tovarlarining o'sishi, 2019-yil yanvar oyiga  
nisbatan % da.**

**Sanoat ishlab chiqarish**



**Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish**




### Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish xajmi 502,3 mlrd.so'mni va o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 64,0 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Yangiqo'rg'on (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Chortoq (100,0 %), Norin (100,0 %), va Mingbuloq (100,0 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichkina ulush, To'raqo'rg'on (43,4), Uchqo'rg'on (54,6), Namangan shahar (56,3 %) va Pop (57,7 %) tumanlarida kuzatildi.

### 2020 yilning yanvar oylarida hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da.




■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes

### Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.


Bugungi kunda viloyatda 5524 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 2356 tasi Namangan shahrida, 405 tasi Chust, 401 tasi Namangan, 394 tasi Uychi, 356 tasi Kosonsoy, 350 tasi To`raqo`rg`on, 250 tasi Uchqo`rg`on, 239 tasi Norin, 223 tasi Chortoq, 220 tasi Yangiqo`rg`on, 211 tasi Pop va 119 tasi Mingbuloq tumanida joylashgan.

#### 2020 yil 1-fevral holatiga faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni (birlikda)



2020-yilning yanvar oyida viloyatda 75 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan 66,7 % Namangan shahri, Uychi, Chust, Namangan tumanlariga to'g'ri keladi.

**2020 yil 1 fevral holatiga yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni  
(birlikda)**



**Namangan viloyat statistika boshqarmasining  
Sanoat statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

E.Jalilov

Aloqa telefoni:

( 71 ) 230-84-80